
Bugungi sessiyada bir qator masalalar ko'rib chiqildi

Bugun 12 oktyabr kuni Xalq deputatlari Rishton tuman Kengashining navbatdagi 44- sessiyasi tuman hokimligining katta majlislar zalida bo'lib o'tdi. Sessiyada ishida sektor rahbarlari, tuman hokimining tegishli o'rinbosarlari, kun tartibiga kiritilgan masalaga aloqador davlat va jamoat tashkilotlari rahbarlari hamda ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi.

Sessiya ishini tuman hokimi Xalq deputatlari tuman Kengashi raisi S. Soliev olib bordi.

Bugungi sessiya muhokamasiga qo'yidagi masalalar kiritildi:

□ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Rishton tumanidagi Xalq qabulxonasi hamda tumandagi hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha sektorlar tomonidan 2022 yilni 9 oyida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan Xalq qabulxonasi mudiri S. Dodoboevning axboroti

□ Hokim yordamchilari tomonidan mahallalarda tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qiskartirish masalalari bo'yicha 2022 yilni sentyabr oyida amalga oshirilgan ishlari yuzasidan tuman Xalq qabulxonasi mudiri S. Dodoboevning axboroti

□ "Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha sektorlar faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4102-sonli qarorlari ijrosini ta'minlash maqsadida 2022 yil 9 oyi davomida tuman hokimi, tuman prokurori, tuman ichki ishlar bo'limi boshlig'i, tuman davlat soliq inspeksiyasi boshlig'i sektorlarida amalga oshirilgan ishlar haqidagi hisoboti to'g'risida.

□ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 18.04.22 yildagi "Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlar bajarilishi yuzasidan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlarining hisobotlarini eshitib borish to'g'risida"gi KQ-334-IV-sonli qarori ijrosi yuzasidan tumanda tashabbusli byudjet jarayonida g'olib deb topilgan loyihalarning amalga oshirilishi to'g'risida tuman hokimi S. Solievning hisoboti

□ 2022 yilni 3-choragi yakuni bo'yicha tumandagi davlat organlari va tashkilotlarida norma ijodkorligi hamda huquqni qo'llash amaliyoti holati bo'yicha Rishton tumani Adliya bo'limi boshlig'i M. Qodiralievning axboroti

□ Tuman hududida jinoyatchilikni oldini olish va unga qarshi kurashish borasida 2022 yilni 9 oyi davomida amalga oshirilgan ishlar va kelgusidagi vazifalar to'g'risida tuman IIB boshlig'i (o'rinbosari) hisoboti. □ Tuman aholi bandligiga ko'maklashish markazi direktorining tumanda yangi ish o'rinlarini yaratish va aholi bandligini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlarning holati to'g'risidagi Tuman aholi bandligiga ko'maklashish markazi direktori J. Rahimovning hisoboti. □ Xalq deputatlari viloyat Kengashi kotibiyatini 21.09.22 yildagi 02-02-17/194 sonli topshirig'iga asosan tumandagi "Saxovat va ko'mak", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari" jamg'armalari mablag'larining shakllanishi va ishlatilishi yuzasidan 2022 yilni 9 oyi davomida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan: *□ Viloyat mahalla jamoat fondi huzuridagi "Saxovat va ko'mak" jamg'armasi hisobchisi D. Vohidov* □ Tuman hokimi o'rinbosari, oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i M. Bekmirzaeva* □ Yoshlar ishlari agentligi tuman bo'limi boshlig'i M. Alijonovlar hisobotlari

□ Farg'ona viloyati hokimining 10.05.22 yildagi 186-11-0-Q/22 sonli qarori bilan tuman zaxirasiga olingan tumandagi Tuda MMTP hududidagi "Feruz Ixtiyori" (2,00 ga) va "Hamkorsabzavot" (2,47 ga) fermer xo'jaliklarini № 260 konturidagi jami 4,47 ga yer maydonini "E-IJRO AUKSION" orqali fermer xo'jaligi tashkil qilish uchun ochiq elektron tanlov orqali ijaraga berish bo'yicha tayyorlangan loyihani tasdiqlash to'g'risida

Sessiya davomida kun tartibidagi masalalar yuzasidan mutasaddi rahbar va mas'ullarning hisobotlari tinglanib, har bir masala bo'yicha muhokama o'tkazildi va tegishli qarorlar qabul qilindi.

Rishton tumani hokimligi Axborot xizmati.

2022-10-12 14:51:11